ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O‘ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 97

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma’no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe’llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
«Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi she‘riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O‘G‘LI
Jadid dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR’AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o‘zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA’LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog‘lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

INTERTEKSTUAL BIRLIKLARNING POETIK VAZIFASI

Raimova Sayyora Zaitovna,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Iqtibos san'ati intertekstuallikning asosini tashkil etuvchi muhim birliklardan biri deyish mumkin. Ayniqsa, profetologiya –payg'ambarlik ta'limotiga oid asarlarda uning yaxshi namunalarini uchratish mumkin. Iqtibos intertekstlar retsipiyent uchun har jihatdan qulaylik tug'diradi, ayniqsa, diniy-ma'rifiy asarlarni tushunishda asosiy vositadir. Shu bois iqtibosning qadim tarixini bilish uchun adabiyotshunosligimizning ba'zi manbalariga murojaat etdik.

Mazkur san'at tarixi va nazariyasi, umuman olganda genezisi borasida adabiyotshunos Olimjon Davlatov o'z tadqiqotida atroflicha to'xtaladi[1].

Iqtibos haqida arab va fors manbalarini kuzatgan olim shunday yozadi: «Badi' ilmiga oid o'rta asr arab adabiyotshunosligining ilk manbalarida iqtibos san'ati haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lolmadik. Mumtoz fors adabiyotshunosligining ilk obidalari – «Tarjumon ul-balog'a», «Hadoyiq ussehr», «Al-mo'jam», «Hadoyiq ul-haqoyiq»da ham iqtibos alohida san'at sifatida ko'rsatilmagan»[2],- degan ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Iqtibos san'atining ilmiy manbalarda ilk bora uchrashi haqidagi keng qamrovli aniq xulosalarini beradi: «Bu haqda ilk marotaba Atoulloh Husayniyning «Badoyi us-sanoyi»i va Husayn Voyiz Koshifiyning «Badoyi' ul-afkor fi sanoyi il-ash'or»ida ma'lumot berilgan»[3].

Bundan tashqari iqtibos san'ati haqida o'z qarashlarini ilgari surish jarayonida uning takomilidagi bir qancha asosiy omillarni sanar ekan, mazkur san'atning adabiy manbalarda XV asrda qayd qilinganligini va shu davrgacha ham «Sanoiy, Yassaviy, Yusuf Boqirg'oniy, Sa'diy, Mavlaviy, Hofiz, umuman, qaysi shoir devonini ochsangiz, Qur'on oyati yo hadis matni aynan keltirilgan bayt yoki misraga duch kelasiz»[4],- degan qimmatli fikrlarni bayon etadi. Mazkur fikrlar iqtibos san'ati nazariyasiga doir adabiyotshunoslikdagi muhim dalillardir.

Darhaqiqat, Atoulloh Husayniyga ko'ra: «Iqtibos mashhur qavlg'a ko'ra Qur'on yo hadisdin bir nimani aning Qur'on yoki hadisdin olinganig'a ishora bo'lmag'an tarzda kalomg'a kiritmaktin iborattur»[5]. Lug'atlarda iqtibos haqida shunday ma'lumotlar keladi:» IQTIBOS (ar. – ilm o'zlashtirmoq, o'zaro foydalanmoq) — mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at. Keng ma'noda I. «bir so'z yoki yozuvni bo'lgani kabi yo qisqartirib olmoq. Biridan ilman istifoda etmoq... So'z orasida Qur'oni Karimdan yoxud Hadisi Sharifdan yo boshqa maqbul asarlardan bir jumlaning to'liq yoki qisman o'z tasarruf ila yoxud tasarrufsiz olinishi»ni anglatadi va bu ma'nosida I. s i tata (q.) bilan sinonimdir. She'riy san'at sifatida esa I. «Qur'on yo hadisdin bir nimani aning Q|ur'on yoki hadisdin olinganiga ishora bo'lmag'an tarzda kalomg'a kiritmaktin iborattur» (Atoullo Husayniy). Ya'ni I. san'ati Qur'on va hadis ilmi bilan bog'liq bo'lib, ijodkorning o'z fikrini shu ikki mo'tabar manbaga tayanib asoslashini anglatadi. I. san'ati mumtoz adabiyotimizda keng qo'llangan bo'lib, uning ikki navi mavjud.

Birinchi navida oyat yoki hadis aynan keltiriladi va «darj» deb yuritiladi. Oyat yoki hadisni aynan emas, balki tarjimasi yoki mazmunini keltirish esa «hall» deb ataladi. Demak, umumlashtirib aytish mumkinki, baytda oyat yoki hadisni hech qanday ishorasiz aynan keltirish ham, baytga oyat yoki hadisning mazmunini singdirib yuborish ham I. sanaladi».[6]

Topos singari, iqtibos (sitatsiya) tarixi ham inter-

[1] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 160.

[2] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 14.

[3] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 16.

[4] Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Филол. фан. б. фалс. док. дисс... – Самарқанд, 2017. – Б. 17.

[5] Ҳусаиний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 242-243.

[6] Адабиётшунослик луғати // Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 128.

tekstual amaliyotning tushuncha sifatida shakllanishidan ancha oldin — ming yillar davomida — ilmiy va madaniy hayotda qanchalik keng rivojlanganini ko'rsatadi. « Sitatsiya»« so'zi bugungi ma'nosini (ya'ni boshqa matndan so'zma-so'z parcha olish) nisbatan kech — faqat XVI asrda — olgan. Biz bilgan shaklda esa u XVIII asrda, avvalo ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanila boshlagan. Bu atama lotincha *citare* («chaqirmoq», «murojaat qilmoq», «guvohlikka chaqirmoq») fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, qadimgi davrda asosan huquqiy termin sifatida ishlatilgan, ba'zan esa yozma manbalarga murojaat qilish ma'nosini ham bildirgan.[1]

XVI asr boshlarida Erasmus o'zining *De copia verborum ac rerum libri duo* asarida mualliflarni iqtibos qilishning 26 ta modelini (*Auctores citandi formulae*) jamlagan. U asosan sentensiyalar va umumiy o'rinlarni nazarda tutgan bo'lsa-da, aslida manbalarni iqtibos qilish amaliyotining zamonaviy nazariyasiga asos solgan[2].

1970 yillardan boshlab, ayniqsa 1980 yillarda, adabiyotshunoslarning umumiy intertekstuallik zaminida idrok etiladigan iqtibosiylikka bo'lgan qiziqishi Fransiyadan butun Yevropa va AQShga yoyildi. Iqtibos keltirish mavzusidagi sharhlovchi maqolalar, sintetik tadqiqotlar, maxsus sonlar, monografiyalar va konferensiya materiallari quyidagi mamlakatlarda nashr etildi:

Fransiya: *Poétique* (1976), *Littérature* (1981, 1984, 1988) va *Texte* (1983) jurnallari.

AQSh: *«Intertextuality: New Perspectives in Criticism»* (1978), *«Intertextuality: Theories and Practices»* (1990), *«Influence and Intertextuality in Literary History»* (1991).

Germaniya: *Dialogizität* (1982), *Dialog der Texte* (1983), *Das Gespräch* (1984), *Intertextualität* (1985, 1991, 1994).

Boshqa mamlakatlar: Niderlandiya (Hugo Verdaasdonk, 1973), Ispaniya (Pérez Frimat, 1978), SSSR/Rossiya (*«Tekst v tekste»*, 1981; N.A. Fateeva, 2000), Kanada, Shveysariya, Polsha, Xorvatiya va Sloveniya[3].

T. G. Vinokur esa iqtibosni kengroq talqin qiladi, biroq aniqlik kiritadi: «Iqtibos — bu aslida senga tegishli bo'lmagan nutq formulasining o'zlashtirilgan shakli, lekin u endi sening maqsading uchun ishlatiladi».

N.Pege-Gro iqtibos intermatnlikning eng yaxshi namunasi ekanligini, uning ko'zga yaqqol tashlanib turish xususiyati matnlararo qo'shiluvni bevosita ko'rish imkonini berishini ta'kidlaydi[4]. Chunki bunday matn hatto qo'shtirnoq bilan ajratilgani bois tez ko'zga tashlanadi va endi retsepientga qiyinchilik tug'dirmaydi, faqat uning tahlili va talqiniga e'tibor qaratishni taqozo qiladi. Iqtibos intertekstuallikning eng kichik va sodda ko'rinishi hisoblansa-da, uning matn to'qimasidagi tashiydigan ma'nosi, vazifasi anchayin murakkablik kasb etadi. «Sitata keltirish usuli ochiq xarakterga ega bo'lsa ham, bundan uning murakkablik darajasi kamayib qolmaydi»[5]

Tadqiqotimiz obyekti sifatida olingan diniy-ma'rifiy asarlarda ko'plab diniy iqtiboslar keltirilganining guvohi bo'ldik. Mazkur intertekstual birliklar — iqtiboslarni quyidagicha tasnifladik:

1. Qur'oniy iqtiboslar.
2. Hadis iqtiboslar.

Matnlararo aloqalar, ya'ni intertekstuallik muallifning individual uslubi va asarning g'oyaviy-falsafiy ko'lamini belgilovchi zamonaviy adabiyotshunoslikning yetakchi mezonlardan biri hisoblanadi. Abdulla Oripovning «Haj daftari» (Hikmat sadolari) to'plami muqaddas manbalar, Qur'on oyatlari, hadisi shariflar hamda mumtoz adabiy meros bilan mustahkam intertekstual aloqaga kirishgan asardir. Diniy-tasavvufiy va falsafiy manbalarning intertekstual aloqasi va integratsiyasini ta'minlagan asosiy namunadir. Shoir muallif so'zboshisida qayd etganidek, ushbu she'riy turkum bevosita payg'ambar Muhammad alayhissalomning suxanlari hamda Islom tarixidagi muqaddas ziyorat taassurotlari asosida dunyoga kelgan.

Turkumdagi Qur'oni karim matnlaridan to'g'ridan-to'g'ri iqtibos keltirish badiiy konsepsiyani shakllantirishda asosiy poydevor vazifasini o'tagan.

Muallif «Qum fa anzir!» she'rida «Qur'oni karim»ning Makkada nozil bo'lgan 56 oyatdan iborat «Muddassir» surasining ikkinchi oyatidan iqtibos sifatida foydalanadi. «Qum fa anzir!» (Tur va ogoh et!) ilohiy buyrug'i turkumdagi maxsus she'rning sarlavhasi va bosh refreni sifatida aynan keltirilgan bo'lib, u dastlabki bandda insondagi g'aflatga qarshi kurashish va da'vat pafosini kuchaytirishga xizmat qilgan bo'lsa, oxirgi bandlarga kelib esa «Muddassir» surasining uchinchi oyati karimasi «Va rabbingni ulug'la»ni «Ulug'lagin Rabbingni doim» shaklida she'r strukturasiga muvofiq qo'llab, iqtibos sifatida foydalanadi:

[1] Marko Juvan. History and Poetics of Intertextuality.West Lafayette, Indiana: Purdue University Press, 2008.
[2] Marko Juvan. History and Poetics of Intertextuality.West Lafayette, Indiana: Purdue University Press, 2008. P.26.
[3] Marko Juvan. History and Poetics of Intertextuality.West Lafayette, Indiana: Purdue University Press, 2008. P.139.
[4] Пьеге-Гро Натали Введение в теорию интертекстуальности: Пер. с фр. / Общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова. – М.: Издательство ЛКИ, 2008.– 240 с.
[5] Ҳасанов С. Ҳозирги ўзбек ва инглиз насрида интерматн ҳодисаси талқини (Исажон Султон, Баҳодир Қобул ва Кадзуо Исигуро асарлари мисолида) Филол. фан. ... фалс. док. дисс. – Самарқанд, 2025. – Б. 22.

Qum fa anzir! – Tur va ogoh et,
Ayt mo'minlar bo'lsinlar qoim.
Qum fa anzir! – Tur va ogoh et,
Ulug'lagin Rabbingni doim.[1]

Shu o'rinda, she'rdagi allyuziyalarga ham e'tiborni qaratish lozim. Misralardagi asosiy allyuziv qatlam bevosita Islom tarixining ilk davrlariga — payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga ilk vahiylar nozil bo'la boshlagan paytga ishora qiladi. «Qum fa anzir» buyrug'i orqali Johiliyat davriga ya'ni, arab jamiyatining jaholat botqog'iga botgan, adolatsizlik va ma'naviy inqiroz hukmron bo'lgan davriga ishora bor. Shoir saodat asri poydevorini qurishdagi o'sha davr muhitga bilvosta ishora qilish orqali, insoniyat tarixidagi har qanday ma'naviy yangilanish va yuksalish hamisha insonga ulkan mas'uliyat va qiyinchiliklar tug'dirishiga shama qiladi.

Islom tarixidan ma'lumki, ushbu oyat nozil bo'lishidan avval Sarvari koinotning vahy yukidan cho'chib, kiyimlariga burkanib olgani va bu chaqiriq nafaqat saodat asridagi balki barcha davrlardagi jamiyatdagi befarq kimsalarga nisbatan yashirin teologik allyuziv da'vatdir.

«Ayt mo'minlar bo'lsinlar qoim» degan xitobda shoir yashagan davrning ijtimoiy-ruhiy manzarasiga qilingan kuchli ijtimoiy-ma'naviy allyuziya mavjud. Chunki sobiq Sho'ro davrida xalqimiz milliy o'zligi va muqaddas e'tiqodlaridan mahrum etilgan edi. Shu tufayli «mo'minlar» so'zini ham yashirin allyuziya sifatida talqin etish mumkin.

«Qoim bo'lmoq» iborasida ham yashirin allyuziya mavjud. Haqiqiy ma'nosida ibodatda qoim bo'lish ko'zda tutilgan bo'lsa, allyuziv sathda mustabid mafkura asoratidan qutulish, milliy o'zlikni anglash, haqiqat va adolatning jilovini mahkam tutishga da'vat bor.

Shuningdek, Qur'oni karimning ko'plab o'rinlarida mo'minlarga adolat va e'tiqodda va ibodatda qoim turish buyuriladi. Masalan, Niso surasi 135-oyatda «Ey imon keltirganlar ! Adolatda barqaror turuvchi (Qoim bo'luvchi) bo'ling» yoki Sho'ro surasi 13-oyatda «Dinni qoim qilinglar va unda firqalarga bo'linmanglar» degan muborak qoidalar keladi. Keyingi satrdagi *«ulug'lagin rabbingni doim»* talabi insoniyatning olamda o'z o'rnini unutib qo'yish fojiasiga qilingan falsafiy allyuziyadir. Chunki inson bu olamda barcha hukmronlik va ulug'lik Allohgagina xos xususiyat ekanligini anglamog'i va Uni ulug'lamog'i lozimligi uqtiriladi. Masalan, Asqar Mahkam 1999 yilda yozgan «So'z joni» she'rida iqtibosni intertekstual birlik sifatida o'z g'oyaviy maqsadini ifodalash uchun qo'llaydi:

Odam bo'lmas hech kim o'qimay
Mavlononing kulliyotini!
Va payg'ambar rahmat tog'ida
Tinglamoqda ilohiy vahiy.
Butun olam ahlin og'zida
«Iqro bismi Robbikal-laziy!»[2]

Mazkur satrlardagi «Iqro bismi Robbikal-laziy!» Makkada nozil bo'lgan, 19 oyati karimadan iborat «Alaq» surasining birinchi oyatidan olingan to'g'ridan-to'g'ri iqtibos hisoblanadi. Muhammad payg'ambarga Hiro g'ori(Rahmat tog'i)da kelgan ilk ilohiy vahiy matni sifatida butun olam ahlining og'zida ekanligi alluziya qilingan. Faqat shoir oyati karimaning oxirgi «xolaqo» so'zini she'r vazniga muvofiq tushirib qoldiradi. Bu haqda shunday tafsir qilinadi: «**Yaratgan Robbing nomi bilan o'qi**. Demak, o'qish, ilm talab qilish Alloh taoloning roziligi uchun bo'lishi, boylik, mansab, shon-shuhrat va boshqa shunga o'xshash narsalar uchun bo'lmasligi kerak ekan»[3].

Ana shu iqtibosdan ruboiylarida ham mahorat bilan foydalangan, ya'ni ruboiy talablariga mos holatda «Iqro» muborak kalomi orqali butun boshli oyat yoxud suraga ishora qilinganini ko'rish mumkin:

Bizlami bino aylagan ul zotga hamd,
«Iqro»degan Ul Xoliqi Ustodga hamd.
Gar aslimiz tuproq edi bok yo'qdir hech,
Odamligimiz yetar, bu ijodga hamd[4].

Shuningdek, shoir «Muso va Tur» she'rida ham Qur'oni karim oyatlaridan iqtibos sifatida foydalanadi:

Asta-asta tog'lar tebranar
«Va bussatil jibalu...»dayin,
«Zilzilatul arzu...» eslatar
Nechuk titrar bir kuni zamin[5].

Qur'oniy syujet asosiga qurilgan mazkur she'r Muso (a.s)ning Alloh jamolini ko'rishga intilishining badiiy-falsafiy talqini sifatida tahsinga loyiqdir. Chunki she'rning falsafiy asosida nafaqat haqiqiy voqelik — Qur'oniy syujet, balki insonning haqiqatga intilish ramzi aks etgan. Mumtoz salaflarga xos tasavvufiy ruh – ma'rifat, ilohiy ishq, ramziylik shoir konsepsiyasini tushuntirishda asosiy o'rin tutadi. She'rning mazmun jihatidan Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi mumtoz mutasavvif shoirlar ijodida ko'p uchraydigan motivlar bilan bog'liqligi matnlararo aloqalarni ta'minlash orqali intertekstuallikni vujudga keltirgan deyishimiz mumkin.

Shuningdek, she'rdagi sarlavha intertekstga e'ti-

[1] А.Орипов. Танланган асарлар.2-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 198.
[2] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – Б. 191.
[3] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 507.
[4] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – Б. 269.
[5] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – Б. 221.

boringizni qaratmoqchimiz. Shoir sarlavhadayoq Qur'ondagi Muso va Tur voqeasiga ishora qiladi va bu sarlavha intertekstning yaxshi namunasiga misol bo'ladi.

Qur'oniy «Va bussatil jibalu...» iqtibosi esa Makkada nozil bo'lgan 90 oyati karimadan iborat «Voqi'a» surasining 5-oyatidan olingan:»**Va tog'lar maydalashib titilganda. Hozirda salobat va sobitlik timsoli bo'lgan ulkan tog'lar voqe bo'lgan kunda mayda-mayda bo'lib titilib ketadi»**[1].

Keyingi satrlardagi **«Zilzilatul arzu...»** oyati karimasi Madinada nozil bo'lgan 8 oyatdan iborat – Zalzala surasining 1-oyatiga ishora qiluvchi iqtibosdir. Uning tafsiri quyidagicha: «**Vaqtiki, yer o'ziga xos zilzilaga tushsa**...» Ya'ni yer o'z hajmi, o'lchoviga yarasha katta zilzilaga tushsa. Qiyomat qoim bo'lganda, yer butunlayicha qattiq zilzilaga tushadi. Hozirgiga o'xshab uning ba'zi bir nuqtasi sal-pal silkinib qo'ymaydi. Balki yer o'zining butun vujudi bilan hech bir nuqtasi ham qolmay nihoyatda shiddatli zilzilaga tushadi. Ana o'sha yerning o'ziga xos zilzilaga tushgani bo'ladi. Ana o'sha zilzila oqibatida...[2]

She'r shunday misralar bilan yakun topadi:
Eng so'nggi bor so'ngsiz qahrda
Muso bilan gaplashadi Tur...[3]

Shoir Muso va Tur talmehlari orqali intertekstuallikning asosiy turlaridan Qur'oniy allyuziyani hosil qiladi. Chunki Muso (a.s) va Tur tog'i bilan bog'liq voqealar Qur'oni karimning «Tur», «Toha», «Qosos», «A'rof», « Naml», «Shuaro» kabi bir qancha suralarida zikr etiladi. Makkada nozil bo'lgan 206 oyati karimadan iborat «A'rof» surasi 143-oyatida shunday keladi: «**Muso miyqotimizga kelib, Robbi unga gapirganida, «Robbim, menga (jamolingni) ko'rsatgin, Senga nazar solay», dedi. (U Zot) «Meni hech ko'ra olmassan. Lekin toqqa nazar sol, agar u makonida sobit tura olsa, bas, Meni ko'rasan», dedi. Robbi toqqa tajalliy qilganida, uni titilgan holga keltirdi va Muso hushidan ketib yiqildi. Hushiga kelgach: «Sen poksan, Senga tavba qildim. Men mo'minlarning avvalgisiman» dedi»**[4].

Yoki «Muso bilan gaplashadi Tur» satrlaridagi mazmun Qur'oni karimning Makkada nozil bo'lgan 49 oyatdan iborat «Tur» surasidagi birinchi oyati karimaga ishora qiladi: «**Tur bilan qasam**»... Tur tog'i Siyno yarimorolidagi tog' bo'lib, o'sha joyda Alloh taolo Muso alayhissalom bilan gaplashgan. Muso alayhissalomga Alloh taolo tomonidan yuborilgan lavhlar ham shu toqqa tushgan. Muso alayhissalom Alloh taolodan, jamolingni ko'rsat, deb so'raganida, Haq subhanahu va taolo, men toqqa nazar solaman, agar u chidasa, senga jamolimni ko'rsataman, deb Turga nazar solganda, tog' chidamagan ekan. Ushbu muborak tog' bilan qasam ichishning o'zi suraning muqaddaslik ruhini oshiradi»[5].

Asqar Mahkamning mazkur she'ri Boborahim Mashrab lirikasidagi Muso va Tur bilan bog'liq Qur'oniy syujetlar aks etgan she'rlar bilan intertekstual aloqaga kirishganini ham e'tirof etish lozim.

Kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatadiki, diniy-ma'rifiy asarlarda qo'llanilgan iqtibos, talmeh va allyuziyalar shunchaki ziynat unsuri emas, balki asarning falsafiy-tasavvufiy yo'nalishini belgilovchi, inson vujudi va ruhiyati o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beruvchi eng muhim badiiy vositalardir. Shuningdek, asarning kompozitsion yaxlitligini, lirik qahramonning ruhiy-ijtimoiy evrilishlarini hamda milliy she'riyatning estetik quvvatini ta'minlovchi asosiy funksional birliklar bo'lib xizmat qilgan.

Rezyume. Mazkur maqolada diniy ma'rifiy she'rlarda uchraydigan intertekstual birliklarning poetik vazifasiga e'tibor qaratilgan. Abdulla Oripov, Asqar Mahkam kabi shoirlarning ayrim she'rlari intertekstual tahlilga tortilib, xulosa berilgan.

Resume. This article focuses on the poetic functions of intertextual units occurring in religious and educational poetry. Selected poems by Abdulla Oripov and Asqar Mahkam are subjected to intertextual analysis, and relevant conclusions are drawn based on the findings.

Резюме. В данной статье рассматриваются поэтические функции интертекстуальных единиц, встречающихся в религиозно-просветительской поэзии. Отдельные стихотворения Абдуллы Орипова и Аскара Махкама подвергаются интертекстуальному анализу, по результатам которого делаются соответствующие выводы.

[1] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 24.
[2] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 520.
[3] Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: Nurafshon busines, 2021. – Б. 221.
[4] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 374.
[5] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 6-жуз. -Т.: Ҳилол- Нашр, 2023. – Б. 609.